


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI**  
**“JISMONIY MADANIYAT” KAFEDRASI**



**BASKETBOL SPORT TURIDA HAKAMLIKNING**  
**NAZARIY ASOSLARI O'QUV-USLUBIY KO'RSATMA**

**O'qituvchi. E. V. Jo'raev**



**NAMANGAN 2020 YIL**

## **Basketbol o'yini rasmiy qoidalari**

**Basketbol o'yini maydoni va uning o'lchovlari:** Olimpiada turnirlari va Jahon birinchiligi o'yinlari uchun maydon o'lchovlari uzunligi 28 m x 15 m bo'lishi va ular chegaralangan chiziqning ichki tomonidan o'lchanishi kerak.

Shift balandligi 7 m dan past bo'lmasligi va yetarli darajada yoritilgan bo'lishi zarur. Yorug'lik manbalari o'yinchilarga xalaqit bermaydigan joylarda o'rnatilishi shart.

**Maydon chiziqlar:** O'yin maydoni yaxshi ko'rinadigan chiziqlar bilan belgilangan bo'lishi va bu chiziqlar istagan nuqtada tomoshabinlar, reklama to'siqlari va boshqa g'ovlardan kamida 2 m uzoqlikda joylashishi kerak. Maydonning uzun tomonlarini belgilovchi chiziqlar – yon chiziqlar, qisqa tomonlarini belgilovchi chiziqlar esa – en chiziqlar deb atalishi lozim. Chiziqlar yaqqol ko'rinadigan rangda va eni 5 sm bo'lishi kerak.

**Markaziy doira** radiusi 180 sm ga teng bo'lishi va maydon markazida belgilanishi kerak.

**Markaziy chiziq en** chiziqlariga parallell holda yon chiziqlari o'rtasidan o'tkazilishi va har ikkala yon chiziqlaridan 15 sm tashqariga chiqib turishi kerak. Maydonning raqib shiti orqasidagi yon chizig'i va markaziy chiziqning yaqin chekkasi o'rtasida joylashgan qismi jamoaning old zonasi hisoblanadi. Maydonning qolgan qismi, shu jumladan, markaziy chiziq ham jamoaning **orqa zonasi** hisoblanadi.

**O'yindan 3 ochkoli to'plarni tashlash zonalari:** Polning maydonda ajratilgan va ikkita yoy hosil qiladigan chiziqlar bilan chegaralangan qismi o'yindan 3 ochkoli to'plarni tashlash zonalari hisoblanadi. har bir yoy savatning markaziga to'g'ri perpendikulyar bo'lgan poldagi nuqtani markaz qilib belgilab turib, tashqi qirrasigacha 625 sm radiusli yarim doira shaklida chiziladi va parallell holda yon chiziqlariga davom ettirilib, en chiziqlarida tugaydi.

**Chegaralangan zonalar:** Maydonni ajratadigan chiziqlar, jarima to'pini tashlash chiziqlari va **chegaralangan zonalari** hisoblanadi. Ularning tashqi chegaralari chiziqlarining o'rtasidan 3 m uzoqlikda bo'ladi, jarima to'pini tashlash chizig'ining tashqi chekkasida tugaydi.

**Jarima to'pini tashlash joyi** – bu o'yin maydonida 180 radiusli yarim doira bilan ajratiladigan chegaralangan zonalardir. Ularning markazlari jarima to'pini tashlash chizig'i o'rtasida joylashgan. Bunday yarim doiralar chegaralangan zonalarning ichida bo'lingan chiziqlar bilan o'tkaziladi. Jarima to'pini tashlash zonasi bo'ylab belgilangan joylarni o'yinchilar jarima to'pini tashlanayotganda egallaydilar. Jarima to'pini tashlash zonasi tomonidan chiziqlar bo'ylab o'lchab turib, en chizig'ining ichki chekkasidan 175 sm uzoqlikda birinchi belgilanadi. Birinchi joy 85 sm uzoqlikda o'tkaziladigan chiziq bilan chegaralanadi. Bu chiziq orqasida eni 30 sm bo'lgan betaraf zona joylashadi. Ikkinchi joy betaraf zona ketida joylashadi va eni 85 sm bo'ladi. Ikkinchi joyni belgilab turgan chiziqdan keyin eni 85 sm bo'lgan uchinchi joy belgilanadi. Bu joylarni belgilash uchun ishlatiladigan hamma chiziqlarning uzunligi 10 sm va eni 5 sm bo'ladi. Bu chiziqlar jarima maydonchasining yon chiziqlariga nisbatan perpendikulyar bo'lib, tashqi tomondan chizilgan bo'lishi kerak.

Jarima to'pini tashlash chizig'i har ikkala en chizig'iga parallell holda o'tkaziladi. Uning uzoq chekkasi yon chizig'ining ichki chekkasidan 580 sm uzoqlikda turishi va u shitdan 360 sm uzunlikda bo'lishi kerak. Uning o'rtasi esa ikkala yon chiziqlarning o'rtasini tutashtiruvchi chiziqda bo'lishi lozim.

**Shitlar, o'lchovi, joylashishi:** Ikkala shitning har biri qalinligi 3 sm bo'lgan qattiq yog'ochdan yoki shunga mos oynadek tiniq ashyodan tayyorlanishi lozim. Olimpiada o'yinlari va jahon birinchiligi musobaqalari uchun shit o'lchovlari gorizontal bo'yicha 180 sm va vertikal bo'yicha 105 sm bo'lishi, pastki qirrasida maydon yuzasidan 290 sm balandlikda turishi kerak.

Shit yuzi silliq, oq rangda bo'lishi mumkin. Uning sirtida halqa orqasiga eni 5 sm ga teng bo'lgan chiziqlar bilan to'g'ri to'rtburchak chiziladi. To'g'ri to'rtburchakning tashqi o'lchovlari gorizontaliga 59 sm, vertikaliga 45 sm bo'lishi kerak. Uning asos chizig'ining yuqori qismi halqa bilan teng turishi kerak. SHitlarning chetlari 5 sm kenglikdagi chiziqlar bilan belgilanadi. Bu chiziqlar shit rangidan yaqqol ajralib turishi lozim. SHitlarning hoshiyalari va ularda chizilgan to'g'ri to'rtburchakning ranglari bir xil bo'lishi shart.

Shitlarni mustahkam qilib, maydonning ikkala chekkasiga en chiziqlarga parallell holda, to'g'ri burchak ostida polga o'rnatiladi. Ularning markazlari har biri en chiziqlari o'rtasining ichki chekkasidan 120 smda maydonga chiqarilgan ravishda joylashadi. SHitlarni ushlab turadigan qurilmalar en chiziqlarining tashqi chekkasidan kamida 2 m uzoqlikda joylashishi shart va ular o'yinchilarning ko'ziga yaqqol tashlanadigan darajada ochiq rangga bo'yalgan bo'lishi lozim.

**Savatlar:** Savatlar halqa va to'rlardan iborat. halqa qattiq metallardan tayyorlanadi, uning ichki diametri 45 sm ga teng bo'lib, to'q sariq rangga bo'yaladi. halqalarning metalli 1,7-2 sm diametrga ega bo'lib, pastki qirrasida to'plarni ilish uchun qo'shimcha bir xil kichik ilmoqlar yoki shunga o'xshash ilgaklari bo'lishi kerak. halqalar maydonga nisbatan gorizontal holatda, 305 sm balandlikda shitlarga mustahkam o'rnatiladi va shitning har ikkala vertikal chekkalaridan bir xil uzoqlikda joylashadi. halqalar ichki chekkasining yaqin nuqtasi shitning yuza qismidan 15 sm uzoqlikda turishi kerak. halqalarga ilinadigan to'rlar oq kanopdan tayyorlanadi, ularning tuzilishi shunday bo'lishi lozimki, to'p savat orasidan o'tayotgan vaqtda bir lahza ushlanib qolishi mumkin bo'lsin. To'rlarning uzunligi 40 sm bo'ladi.

**To'p o'lchovi va og'irligi:** To'p sharsimon shaklda va tasdiqlangan qizg'ish rangda bo'lishi kerak: u sirti bilan birga charmdan, rezina yoki sunoiiy xomashyodan tayyorlanadi; uning aylanasining uzunligi 749 - 780 sm bo'lishi lozim; u 567 g - 650 g og'irlikka ega bo'lishi kerak; to'p 180 sm balandlikdan o'yin maydoniga tushgan vaqtda to'p 120 sm - 140 sm balandlikka ko'tarilishi lozim.

### **Texnik jihozlar**

a) O'yin vaqtini belgilovchi soat va tanaffuslarni hisoblaydigan soat; soniya hisoblovchi o'lchagich bilan taominlangan bo'ladi. O'yin bo'limlarini va ular orasidagi tanaffuslarni hisoblashda ishlatiladigan soat hamda tanaffus vaqtini belgilashda ishlatiladigan soniya o'lchagichni, ham soniya hisoblovchi, ham kotib aniq va ravshan ko'rib turishlari lozim;

b) 24 soniya qoidasiga rioya qilinishini nazorat qilish uchun barcha o'yinchilar va tomoshabinlarga ko'rinadigan tegishli moslama bo'ladi. Uni 24 soniya vaqtini belgilovchi operator boshqaradi.

v) Xalqaro basketbol Federatsiyasi tomonidan tasdiqlangan qaydnoma rasmiy hisoblanib, undagi qoidalariga asosan o'yin boshlanishidan oldin va o'yin davomida kotib tomonidan to'ldirib boriladi;

O'yinchilar, tomoshabinlar va kotibga ko'rinadigan qo'shimcha hisob tablosi bo'ladi;

d) 1-chi raqamdan 5-raqamgacha bo'lgan ko'rsatkichlar kotib ixtiyorida bo'lishi zarur. har safar u yoki bu o'yinchi fol qilganida, kotib o'yinchi nechanchi fol olganligiga qarab shu raqamli ko'rsatkichni har ikkala trener ko'ra oladigan darajada yuqoriga ko'taradi. Ko'rsatkichlar oq rangda bo'lishi, raqamlari o'lchov bo'yicha 2 sm va eniga 1 sm, hamda 1-chidan 4-chi raqamgacha qora rangda, 5-chi qizil rangda bo'ladi;

e) Kotib jamoa follarini belgilovchi ikkita ko'rsatkichlar bilan taominlangan bo'lishi shart. Ko'rsatkichlar qizil rangda bo'ladi;

j) Jamoa follarini belgilash uchun ishlatiladigan moslama.

**Jamoalar:** har bir jamoa trener va ko'pi bilan 10 ta o'yinchidan iborat bo'ladi. O'yinchilardan biri sardor bo'lib hisoblanadi. har bir jamoa tarkibida trener yordamchisi bo'lishi mumkin. Agar jamoa biron bir turnirda uchtadan ortiq o'yinda ishtirok etadigan bo'lsa, har bir jamoaning o'yinchilari soni 12 tagacha ortishi mumkin. O'yin paytida har ikkala jamoadan beshtadan o'yinchi maydonda bo'ladi.

har bir o'yinchining ko'krak va orqa tomonida raqami bo'ladi. Bu raqamlar tushunarli va bir xil rangda, maykaning rangidan yaqqol ajralib turishi zarur. Raqamlar aniq ko'rinib turishi lozim: orqadagi raqamlarning balandligi kamida 20 sm, ko'krakdagi raqamlarning balandligi kamida 10 sm bo'lishi shart. Raqamlar uchun ishlatiladigan ashyoning eni 2 sm dan kam bo'lmasligi kerak. Jamoalar 4-chidan 15-chigacha bo'lgan raqamlarni ishlatishlari lozim. Bir jamoa o'yinchilari takrorlanadigan raqamli maykani kiyib chiqishlari mumkin emas.

**Maydonni tashlab chiqayotgan o'yinchi:** No'aq ustunlikka ega bo'lish niyatida o'yin maydonini tashlab chiqib ketishga o'yinchining haqqi yo'q.

**Sardor vazifalari va huquqlari:** Sardor zaruriyati tug'ilganda maydonda o'z jamoasining vakili bo'lib hisoblanadi. Bu qoidalarni izo'lash bilan bog'liq bo'lgan savollar bo'yicha yoki kerakli ma'lumot olish uchun hakamga murojaat qilish mumkin. Bu narsa xushmuomalalik bilan qilinishi lozim. Sardor biron-bir uzrli sabab bilan maydondan chiqib ketishdan oldin, katta hakamga o'yinchilardan qaysi biri uning o'rniga sardor sifatida qolayotganligini ma'lum qiladi.

**Trenerlar:** Tartib bo'yicha o'yin boshlanishiga hech bo'lmaganda 20 daqiqa qolganida har bir trener kotibga o'yinda qatnashadigan o'yinchilarning familiyalari va raqamlarini, shuningdek jamoa sardori, treneri va trener yordamchisining familiyalarini ma'lum qilishi kerak. O'yin boshlanishiga 10 daqiqa qolganida trenerlar o'z o'yinchilarining familiyalari va raqamlarni tasdiqlaydilar va qaydnomaga qo'l qo'yadilar hamda shu vaqtning o'zida o'yinni boshlaydigan 5 ta o'yinchini belgilab qo'yadilar. Agar o'yinchi o'yin jarayonida o'z raqamini o'zgartiradigan bo'lsa, unda bu haqida kotib va katta hakamga ma'lum qilishi zarur.

Bir minutlik tanaffuslar haqidagi iltimoslarni trener yoki trener yordamchisi qilishlari mumkin. Agar trener yoki trener yordamchisi o'yinchini almashtirish kerakligi to'g'risida bir qarorga kelsalar, unda zahiradagi o'yinchi shu iltimosni yetkazish uchun kotibga murojaat qilishi kerak va o'yinga darhol tushish uchun

tayyor turishi zarur. Agar jamoada trener yordamchisi mavjud bo'lsa, uning familiyasi o'yin boshlanishidan oldin qaydnomaga yozilgan bo'lishi shart. Agar trener turli sabablarga ko'ra o'z vazifasini davom ettira olmasa, bunda trener yordamchisi trener vazifasini bajaradi.

Jamoa sardori trenerdek harakat qilishi mumkin. Agar u biron bir uzrli sabab bilan maydondan chiqib ketishi kerak bo'lsa, unda u trener sifatida harakatini davom ettirishi mumkin. Lekin, agar u qoidani buzganligi tufayli o'yinda qatnashish huquqidan mahrum etilgan bo'lsa yoki og'ir jaro'atlanganligi sababli trenerlik vazifasini bajara olmasa, uning o'rniga sardor sifatida o'yinga tushgan o'yinchi uni trener sifatida ham almashtirish kerak. O'yinga kech qolib kelgan zaxiradagi o'yinchilar o'yinda qatnashishlari mumkin, ammo shu shart bilanki, trener o'yin oldidan kotibga topshiriladigan ro'yxatga kiritgan bo'lishi kerak.

**O'yin vaqti:** O'yin vaqti – «toza» vaqt 40 daqiqa davom etadi. U to'rtta 10 daqiqalik choraklardan iborat. Birinchi va uchinchi choraklardan so'ng 2 daqiqalik tanaffus bo'ladi. Ikkinchi chorakdan keyin 10-15 daqiqalik tanaffus bo'ladi. O'yin natijasi durang bo'lsa, 5 minutlik taymlar beriladi.

**Durang hisob va qo'shimcha davrlar:** Agar o'yinning ikkinchi yarmi tugagan vaqtda hisob durang bo'lsa, hisobdagi tenglikni buzish maqsadida 5 daqiqalik qo'shimcha davr yoki muvozanat buzilgunga qadar bir necha 5 daqiqalik davrlar belgilanadi. Jamoalar birinchi qo'shimcha davr boshlanishidan oldin quroa tashlash yo'li bilan savatlarni tanlab oladilar va har bir keyingi qo'shimcha davr boshlanishidan oldin savatlarni almashtiradilar. har bir qo'shimcha davr orasida 1 daqiqalik tanaffuslar ko'zda tutiladi. har bir qo'shimcha davr boshida o'yin markaziy doirada bahsli to'p otib berilishi bilan boshlanadi.

**O'yin boshlanishi:** O'yin markaziy doirada bahsli to'p tashlab berilishi bilan boshlanadi. Katta hakam ikki raqib o'rtasida to'pni yuqoriga otib beradi. Bu narsa o'yinning ikkinchi yarmi boshlanishida, agar kerak bo'lsa, har bir qo'shimcha davr oldidan ham bajariladi. Mehmon jamoa savatni va jamoa o'rindig'ini tanlab olish huquqiga ega bo'ladi. Agar o'yin betaraf maydonda o'tkazilayotgan bo'lsa, bu huquqni jamoalar o'zaro quroa tashlash yo'li bilan aniqlaydilar. O'yinning ikkinchi yarmida jamoalar savatlarini almashadilar.

**O'yinning boshlanishi va tugashi:** I-II chorakdan keyin jamoalar hujum qilish tomonlarini almashtiradilar. To'rtinchi chorakda qaysi savat tomon hujum bo'lgan bo'lsa, shu tomonga hujum qiladilar.

**Bahsli to'p:** Bahsli to'p juda tez qayd qilinishi, bu bilan o'yin to'xtatilishi va to'p to'pni egallashga tayyor turgan yoki shunga intilayotgan o'yinchidan asossiz olib qo'yilishi mumkin emas. Raqib jamoalarining bittadan yoki undan ortiq o'yinchilari to'pni bir yoki ikki qo'llari bilan maolum muddat ichida mahkam ushlab qolsalar va to'pni hech kim qo'pol harakatsiz egallay olmasligi ayon bo'lgan taqdirda bahsli to'p qayd qilinadi.

Bahsli to'p haqidagi qaror faqat himoya qilayotgan o'yinchi qo'lini to'pga qo'yganligi sababi bilan asoslanishi mumkin emas. Odatda, bunday qaror to'pni ishonchli egallab turgan o'yinchiga nisbatan no'aq hisoblanadi.

Bahsli to'pni otish quyidagi hollarda ro'y beradi:

a) bahsli to'p qayd qilingan vaqtda. Agar bunda ikkitadan ortiq o'yinchi qatnashgan bo'lsa, bahsli to'p taxminan bir xil bo'ygacha bo'lgan raqiblar orasida otilishi kerak;

b) agar to'p maydon tashqarisiga chiqib ketsa va oxirgi marta unga ikki raqib baravar tekkan bo'lsa, yoki hakam to'pga oxirgi bo'lib tekkan o'yinchi aniqlashda ikkilansa, yoki hakamlarning fikrlari turlicha bo'lsa, o'yin yaqindagi doirada bahsda qatnashuvchi ikki o'yinchi o'rtasida to'p otish bilan davom ettirilishi kerak; v) to'p halqa yonida qisilib qolgan paytda o'yinchi har doim jarima to'pini tashlash chizig'i yaqinida ikki raqib o'rtasida bahsli to'p otish bilan davom ettiriladi.

**Jarima to'pini tashlash paytida qoidaning buzilishi:** O'yinchi bahs to'pi otilishiga taalluqli shartlarni buzmasligi kerak. Agar bahsli to'p urib yuborilguniga qadar sakrayotgan o'yinchi sakrash joyini tashlab chiqib ketsa, yoki sakrayotgan o'yinchi doira ichiga kirsas, bunda tezda hakamlarning biri tomonidan qoida buzilganligi qayd qilinishi zarur. Agar qoida ikki jamoa tomonidan buzilsa yoki hakam to'pni yuqoriga otib berishni yomon bajargan bo'lsa, bahsli to'pni tashlash takrorlanishi kerak.

**Savatga tushgan to'p va uning bahosi:** To'p yuqoridan savatga tushib, uning ichida qolsa yoki undan o'tib pastga tushsa, to'p savatga tushdi deb hisoblanadi. To'p o'yin jarayonida maydondan savatga tushsa, 2 ochko, uch ochko keltiradigan chiziq orqasidan savatga tushsa 3 ochko hisoblanadi. Jarima to'pi tashlanganda savatga tushgan to'p I ochko hisoblanadi.

**himoyada to'p bilan o'ynashda qoidaning buzilishi:** himoya qilayotgan o'yinchi to'p yuqoridan savat tomon pasayib kelayotganida va u butunlay halqa sirtidan balandroqda bo'lgan vaqtda to'pga tegishi mumkin emas. Bunday cheklanish faqat to'p halqaga tekkuniga yoki halqaga tegmasligi aniq bo'lgunga qadar qo'llaniladi. Maydondan to'p otilgan vaqtda to'p hali halqa ustida turgan bo'lsa, himoya qilayotgan o'yinchi o'z savati yoki shitiga, to'p shu savat chegarasida turgan bo'lsa, to'pga yoki savatga tegishi mumkin emas.

**To'pni o'yinga kiritish:** To'p maydondan savatga tashlanganidan yoki oxirgi muvaffaqiyatli jarima to'pidan so'ng, ochkolar to'plagan jamoaning xohlagan raqibi maydon tashqarisi va chekkasining istagan joyidan to'pni o'yinga kiritish huquqiga ega bo'ladi. U yon chizig'ida yoki uning orqasida turib xohlagan joydan to'pni o'yinga kiritish, uni yon chizig'ida yoki uning orqasida turgan sherigiga uzatishi mumkin. To'p 5 soniya ichida o'yinga kiritilishi lozim. hisob to'p maydon tashqarisida turgan birinchi o'yinchining ixtiyorida bo'lganidan boshlab sanaladi.

**O'yinchilarni almashtirish:** Zaxiradagi o'yinchi maydonga tushishidan oldin almashish haqida kotibga murojaat qilishi va darhol o'yinga kirish uchun tayyor turishi lozim. Kotib to'p jonsiz holatga o'tishi va o'yin soati to'xtatilishi bilan, ammo to'p qaytadan o'yinga kiritilishidan oldin, o'z signalini berishi shart.

**Bir daqiqalik tanaffus:** O'yinning birinchi yarmida 2 ta, ikkinchi yarmida 3 ta, shu bilan birga har bir qo'shimcha davrda har bir jamoa bir daqiqali tanaffus olishi mumkin. Foydalanilmagan 4 daqiqali tanaffus 1 chi chorakda olinmasa, 2 chi chorakka o'tishi mumkin, yoki o'yinchi chorakda olinmagan daqiqalik tanaffus to'rtinchi chorakka o'tishi mumkin, lekin o'yinning birinchi yarmidagi olinmagan tanaffuslar ikkinchi yarmiga o'tmaydi, berilmaydi.

**Talab qilib olinadigan tanaffus:** O'yin vaqtining har ikkala yarmida har bir jamoaga ikkita talab qilib olinadigan tanaffuslar va qo'shimcha davrning har birida bir marta shunday tanaffus berilishi mumkin. Talab qilib olinmagan tanaffuslar o'yinning keyingi yarmi yoki qo'shimcha davrga ko'chirilishi mumkin emas.

**O'yinchini almashtirish:** To'p jonsiz holatga o'tishi va o'yin soati to'xtalishi bilan, ammo to'p o'yinga kiritishdan oldin kotib signal berganidan keyin maydondagi hakam ruxsat berganidagina amalga oshishi mumkin. O'yinchilarni almashtirish ikkala jamoani xohlagan paytida amalga oshiriladi.

**O'yin natijasi:** O'yin natijasi o'yin davomida to'plangan eng ko'p ochkolar soniga qarab aniqlanadi.

**O'yinni davom ettirish huquqidan mahrum bo'lish:** Agar jamoa katta hakam ko'rsatmasidan keyin ham o'yinda qatnashishdan bosh tortsa, yoki o'z harakatlari bilan o'yinni o'tkazishga xalaqit bersa, jamoa o'yinni davom ettirish huquqidan mahrum etilganligi sababli mag'lubiyatga uchraydi.

Agar o'yin jarayonida jamoaning maydondagi o'yinchilari soni ikkitadan kam qolsa, o'yin tugatiladi va jamoa o'yinni davom ettirish huquqidan mahrum bo'lganligi tufayli mag'lubiyatga uchraydi.

**O'yin tugashi:** Soniya hisoblovchining o'yin vaqti tugaganligini bildiruvchi signali chalingan paytida o'yin tugaydi. Agar soniya hisoblovchining o'yinning har bir yarmi yoki qo'shimcha davri tugaganligi haqidagi signali chalinishi bilan bir vaqtda yoki undan bevosita oldinroq shaxsiy fol belgilangan bo'lsa, shu xato uchun beriladigan har qanday jarima to'pi yoki to'plari savatga tashlanishi kerak.

**O'yinchi va hakamning o'rne:** O'yinchi maydonning qaysi joyida bo'lsa, shu joy uning o'rni bo'lib hisoblanadi. O'yinchi sakraganligi tufayli havoda bo'lgan paytida, u shu maqomni chegaralovchi chiziqlar, markaziy chiziq, 3 ochko chiziqlari, jarima to'pini tashlash chizig'i va jarima to'pini tashlash maydonchasini belgilaydigan chiziq'larga nisbatan oxirgi marta polga tekkan paytdagidek saqlab qoladi. O'yinchining o'rni qanday aniqlansa, hakamning o'rni shunday aniqlanadi. To'p hakamga tegib ketgan paytda, bu narsa to'p u turgan joyning poliga tekkan singari baholanadi.

**To'p bilan o'ynash:** Basketbolda to'p qo'llar bilan o'ynaladi. To'p bilan yugurish, uni oyoq yoki musht bilan urish qoidaning buzilishi bo'lib hisoblanadi. Oyoq bilan to'pni to'sish, faqat ataylab qilingandagina, qoidaning buzilishi bo'lib hisoblanadi. To'pga oyoq yoki tovoni bexosdan tegib ketsa, bu qoidaning buzilishi bo'lib hisoblanmaydi.

**To'pni nazorat qilish:** O'yinchi to'pni ushlab turgan yoki maydonda olib yurgan vaqtida, yoki maydon tashqarisidan to'pni o'yinga kiritish uchun tayyor turganidan to'p uning ixtiyorida bo'lsa, u to'pni nazorat qilayotgan bo'lib hisoblanadi. Jamoa o'yinchisi to'pni nazorat qilayotgan paytda, shuningdek jamoa o'yinchilari to'pni o'zaro uzatayotganlarida, shu jamoa to'pni nazorat qilayotgan bo'lib hisoblanadi.

**Maydon tashqarisidagi o'yinchi, maydon tashqarisidagi to'p:** Agar o'yinchi maydonni chegaralab turgan chiziqlarni yoki maydon tashqarisini bosib olsa, bu o'yinchi maydon tashqarisida turgan hisoblanadi. To'p: maydon tashqarisida turgan o'yinchiga yoki boshqa biron-bir shaxsga, maydonni chegaralab turgan chiziq ustidagi yoki tashqarisidagi biron-bir narsaga yoki polga, shitlar mustahkamlangan

qurilmalarga yoki uning orqa tomoniga tekkan paytda maydon tashqarisiga chiqqan hisoblanadi.

**To'pni maydonda olib yurish:** To'pni olib yurilganda u maydon poliga tegishi kerak. To'p yuqorida aytilganidek harakatga keltirilganidan so'ng, o'yinchi bir yo'la ikki qo'li bilan to'pga tekkan paytida va bir yoki ikkala qo'li bilan tutib qolgan zahoti, u to'p olib yurishni tugatadi. To'p o'yinchining qo'lga tegmagan paytda uning qadamlarini soni chegaralanmaydi.

O'yinchi birinchi marta to'p olib yurishni tugatgan bo'lsa, u to'pni ikkinchi marta olib yurishi mumkin emas. Lekin bu narsa o'yinchi: savatga to'p tashlanganligi, raqib tomonidan to'p qaytarilganligi, to'p uzatilganligi yoki to'satdan yo'qotilganligi, shundan keyin esa u boshqa o'yinchiga tekkanligi oqibatida to'p ustidan nazoratni yo'qotganidan so'ng sodir bo'lmayotgan bo'lishi kerak.

**Aylanish:** Agar to'pni egallab turgan o'yinchi bir oyog'i bilan bir yoki ikki martadan ortiq xohlagan tomonga qadam qo'ysa, bu burilish bo'lib hisoblanadi; boshqa, tayanch oyog'i deb ataluvchi oyoq maydon, poldan uzilmaydi.

**To'pni savatga tashlash jarayoni:** hakam fikricha, o'yinchi tashlash, yuqoridan tashlash yoki qayta tashlash orqali to'pni savatga tushirishga urinishni boshlagan va bu urinish o'yinchining qo'llaridan to'p chiqib ketgunga qadar davom etayotgan paytda bunday o'yinchi to'pni savatga tashlash jarayonida turgan bo'ladi.

**To'pni savatga tashlash:** bu to'pni bir yoki ikki qo'l bilan ushlab va keyin uni havo orqali savat tomon yo'naltirish.

**To'pni yuqoridan savatga tashlash:** bu kuch bilan yoki shunga urinib bir yoki ikki qo'lda to'pni yuqoridan pastga savat ichiga yo'naltirish.

**To'pni qayta tashlash:** bu to'pni qo'l yoki qo'llar bilan savat tomon yo'nalishda urish.

**Uch soniya qoidasi:** To'pni egallab turgan jamoa o'yinchisi raqib zonasining chegaralangan qismida, ya'ni yon chizig'i va jarima to'pini tashlash chizig'ining tashqi tomonigacha bo'lgan oraliqda qatorasiga uch soniyadan ortiq turib qolmasligi kerak. Uch soniyali cheklanishga to'pni maydon tashqarisidan o'yinga kiritish vaziyatlarida amal qilinadi va vaqt to'pni o'yinga maydon tashqarisida turgan va to'pni nazorat qila boshlagan paytdan boshlab sanaladi.

Uch soniyali zonani chegaralab turgan chiziqlar shu zonaning qismi bo'lib hisoblanadi va shu chiziqlarning birini bosib turgan o'yinchi zona ichida turgan bo'lib hisoblanadi. To'p savatga otilganida u havoda bo'lgan paytda, shitga yoki xalqaga urilib qaytayotganida yoki jonsiz holatga o'tganida, uch soniyali cheklanish qo'llanilmaydi, chunki bu paytda to'p hech qaysi bir jamoaning nazorati ostida bo'lmaydi. Zona ichida 3 soniyadan kamroq vaqt turib to'pni savatga tashlash maqsadida uni zonada olib yurgan o'yinchiga qulaylik yaratish mumkin.

**Besh soniya qoidasi:** To'pni egallab turgan o'yinchi, raqib tomonidan yaqindan taqib qilinayotgan o'yinchi to'pni besh soniya ichida uzatmasa, savatga tashlamasa, yumalatmasa yoki maydonda olib yurmasa, qoida buzilishi qayd qilinishi zarur.

**8 soniya qoidasi:** O'yinchi o'zining zonasidan to'pni o'zi yoki jamoasi sakkiz soniya ichida to'pni old zonasiga albatta o'tkazishi kerak.



**24 soniya qoidasi:** Agar o'yinchi maydonda to'p ustidan nazorat o'rnatasa, uning jamoasi 24 soniya ichida savat tomon to'p tashlashi lozim.

**Orqa zonaga qaytarilgan to'p:** Jamoaning old zonada to'pni nazorat qilayotgan o'yinchisi to'pni o'yinning orqa zonasiga uzatishi mumkin emas yoki o'zi to'p bilan u zonaga kirmasligi kerak.

**Follar:** Fol - bu qoidalarga rioya qilmaslik. U qoidani buzgan o'yinchi nomiga yoziladigan va qoidaning shartlariga muvofiq munosib darajada jazolanadigan raqib bilan shaxsiy muloqotni yoki sportchilarga zid bo'lgan xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi.

**Fol yoki qoida buzilganidan so'ng o'yinni davom ettirish:** Qoidalarga rioya qilmaslik natijasida to'p jonsiz holatga o'tganidan so'ng o'yin:

- a) to'pni maydon tashqarisidan o'yinga kiritish;
- b) doiralarning birida bahsli to'pni tashlab berish;
- v) bir yoki bir necha jarima to'plarini tashlash;
- g) bir yoki bir necha jarima to'plari tashlanganidan so'ng to'pni maydon tashqarisidan kotib stoli qarshisidagi yon chiziq o'rtasidan o'yinga kiritish bilan davom ettiriladi.

**Qoidaning buzilishi sodir bo'lgan paytdagi tadbir:** Qoida buzilgan paytda hakam hushtak chaladi va bir vaqtning o'zida ishora (ishoralarning 5 raqami) orqali soat to'xtatilishini ko'rsatadi. Bunday paytda to'p jonsiz holatga o'tadi. To'p qoida buzilgan joyga yaqin bo'lgan maydonning yon chizig'i tashqarisidan o'yinga kiritish uchun raqib jamoasiga beriladi. Qoida buzilganidan so'ng to'p jonsiz holatga o'tgan paytda, agar to'p savatga tushsa, ochko hisoblanishi mumkin emas.

**To'p o'yinga kiritilayotganda qoidaning buzilishi:** O'yinchi maydon tashqarisidan to'pni o'yinga kiritish to'g'risidagi shartlarni buzmasligi kerak. Bu shartlar quyidagilarni man etadi:

a) to'p berilgan yoki o'yinga kiritish uchun uning ixtiyoriga uzatilayotgan to'pni olayotgan o'yinchi to'pga boshqa o'yinchidan oldin tegishi yoki to'pni qo'ldan chiqarib yuborish vaqtida maydonni bosib olishi, to'pni uzatishga 5 soniyadan ko'proq vaqt sarflashi mumkin emas;

b) o'yinchi to'pni o'yinga kiritmasidan oldin hakam ko'rsatgan yer yon chizig'idan qadam tashlashi mumkin emas;

**Follar sodir qilingandagi tadbir:** Shaxsiy follar sodir qilingan paytda hakam hushtak chaladi va bir vaqtning o'zida ishora (ishoralarning 19-raqami) orqali soat to'xtatilishini ko'rsatadi. SHundan keyin u qoidani buzgan o'yinchiga fol sodir qilganligini tushuntiradi.

Qoidani buzgan o'yinchi, agar hakam buni talab qilsa, qo'lini yuqoriga ko'tarib, qoidani buzganligini tan olishi shart. Shundan so'ng hakam kotib yaxshi ko'ra oladigan joyga o'tib, aybdor o'yinchining raqamini, qoida buzilishining xususiyatini va qanday jazo berilishi kerakligini ko'rsatadi. Kotibga fol maolum bo'lishi, qaydnomaga yozilishi va fol ko'rsatkichlari ko'tarilishi bilan hakamlar o'z joylarini almashtiradilar. hakam to'pni o'yinchilardan biriga beradi. Bu o'yinchi to'pni yon chizig'i yoki yon chizig'i tashqarisidan o'yinga kiritadi yoki jarima to'pini tashlash chizig'idan jarima to'pini (to'plarini) tashlaydi.

**Shaxsiy fol:** Shaxsiy fol - bu to'p o'yinda jonli yoki jonsiz bo'lishi yoki bo'lmasligidan qatoiy nazar, raqib bilan to'qnashuvni sodir qilgan o'yinchiga berilgan foldir.

O'yinchi qo'llari, yelkalari, sonlari va tizzalarini qo'yib, o'z tanasini odatdagidan tashqari holatda bukib, raqibning harakatlanishiga xalaqit berishi, to'qnashishi, oyog'idan chalishi, itarishi, oyog'idan ushlab qolishi, yo'lini to'sishi hamda qanday bo'lsa ham qo'pol taktika qo'llashi mumkin emas.

**Yo'l to'sish.** Bu shaxsiy to'qnashuv bo'lib, raqibning harakat qilishiga to'sqinlik qilishdan iborat.

**To'qnashish.** Bu to'p bilan yoki to'psiz raqib ko'kragiga itarib yuborish, yoki harakatlanish orqali qilinadigan shaxsiy to'qnashuv.

**Orqadan taoqib qilish:** shaxsiy to'qnashuvga olib keladigan bunday taoqib shaxsiy fol bo'lib hisoblanadi. hakamlar bunday qoida buzilishi turiga katta eotibor berishlari lozim. himoyalananayotgan o'yinchi to'p bilan o'ynashga intilayotgandagi oddiy hol uni to'pni nazorat qilayotgan o'yinchi bilan to'qnashuv sodir qilganligini oqlamaydi.

**Qo'l bilan tegish:** himoya qilayotgan o'yinchining taoqib qilayotgan paytidagi harakatlari. Bunda qo'l(lar) bilan to'qnashish uchun yoki uning harakat qilishiga to'sqinlik qilish uchun, yoki himoya qilayotgan o'yinchiga o'z raqibini taoqib qilishda yengillik yaratish uchun ishlatiladi (izo'ga qarang).

**Ushlab qolish:** bu raqibning erkin harakat qilishini chegaralab qo'yadigan shaxsiy to'qnashuv bo'lib hisoblanadi.

**Qo'llardan noto'g'ri foydalanish.** U o'yinchi to'p bilan o'ynashga harakat qilayotib, qo'l bilan raqibga tegib turgan paytida sodir bo'ladi. Istisno: hali raqib to'p ushlab turganida uning panjasi bilan to'qnashuv sodir bo'lgan paytda u tasodifiy bo'lib hisoblanadi.

**Itarib yuborish:** bu o'yinchi raqibini qo'zg'otgan yoki qo'zg'atishga uringan paytda sodir bo'ladigan shaxsiy to'qnashuvdir. To'p ushlab turgan o'yinchi bilan orqadan yaqinlashayotgan raqibning to'qnashuvi itarib yuborishnig bir turi bo'lib hisoblanishi mumkin.

**To'siq qo'yish.** Bu to'pni nazorat qilayotgan o'yinchiga xohlagan joyini egallab olishga xalaqit berishga urinish.

To'pni olib yurgan o'yinchi yo'lida turgan raqibi bilan urilib ketmasligi yoki to'qnashmasligi, agar u uchun raqiblari o'rtasidan to'qnashuvsiz o'tishga aniq imkoniyat bo'lmasa, to'pni raqiblarning orasidan yoki raqib va chegaralangan chiziq orasidan olib o'tishga harakat qilmasligi kerak.

Agar to'pni olib yurgan o'yinchi raqibga to'qnashmasdan boshi va yelkalari bilan undan o'zib oldinga o'tib olsa, bundan keyin bo'ladigan to'qnashuvga raqib javobgar bo'ladi. Agar to'p olib yurgan o'yinchi to'g'ri chiziq bo'ylab yurishni tanlagan bo'lsa, uni kuch bilan o'z yo'lidan chetga chiqishga majbur qilish mumkin emas. Biroq, agar raqib bu yo'lda taoqib qilish uchun to'g'ri joyni egallashga erishgan bo'lsa, to'pni olib yurgan o'yinchi to'xtab yoki yo'nalishini o'zgartirib, to'qnashuvni oldini olishi shart.

**To'siq qo'yish. Noto'g'ri to'siq qo'yish:** O'yinchi to'pni nazorat qilayotgan raqibini maydonda xohlagan joyini egallashga xalaqit berishga intilayotgan paytida to'siq qo'yiladi. To'siq to'g'ri va noto'g'ri qo'yilishi mumkin. Raqibiga to'siq

qo'yishga harakat qilayotgan o'yinchi harakatda bo'lmagan, balki ikkala oyoqlari maydonga tegib, joyida turgan paytida to'siq to'g'ri qo'yilgan bo'ladi. Raqibga to'siq qo'yishga urinayotgan o'yinchi to'siq qo'yilayotgan raqib bilan to'qnashuv vaqtida harakatda bo'lgan paytida to'siq noto'g'ri qo'yilgan bo'ladi. Agar bu narsa sodir bo'lsa, to'siq qo'yayotgan o'yinchi yo'l to'sishda ayblanadi. Yo'l to'sish esa fol bo'lib hisoblanadi.

Agar o'yinchi harakat qilayotgan va to'siq qo'yilayotgan o'yinchining bevosita ko'rish doirasida (oldidan yoki yonidan) to'g'ri ko'rolmaydigan to'siq qo'ysa, agar unda to'qnashuv sodir bo'lsa, to'siq qo'yilgan o'yinchi unda aybdor bo'ladi va unga fol qayd qilinishi mumkin. Agar harakat qilmayotgan raqibning ko'ra olish doirasidan tashqarida to'siq qo'yiladigan bo'lsa, to'siq qo'ymayotgan o'yinchi o'z raqibiga to'qnashuv sodir qilmasdan, to'siq tomonga bitta qadam tashlash imkonini berishi lozim.

O'yinchi to'siq qo'yayotganda harakat qilayotgan raqibi ko'ra oladigan doirada, harakatsiz holatni egallagan paytida, raqibiga to'qnashib ketadigan darajada juda yaqin joyda to'siq qo'yishi mumkin emas. Biroq, agar raqib harakatda bo'lsa, unda to'siq qo'yayotgan o'yinchi yetarlicha joy qoldirishi lozim. Bu shu maqsadda qilinadiki, to'siq qo'yilayotgan o'yinchi to'siqni chetlab o'tish maqsadida to'xtab yoki harakat yo'nalishini o'zgartirib, to'siqdan qutulish imkoniga ega bo'lishi kerak. Raqibga to'g'ri to'siq qo'yilgan bo'lsa, u to'siq qo'ygan o'yinchi bilan har qanday to'qnashuv uchun javobgardir.

**Yo'l to'sish:** To'siq qo'yishga urinayotgan o'yinchi, agar u harakat qilayotganida to'qnashuv sodir bo'lsa, raqibi esa statik holatda turgan yoki undan chekinayotgan bo'lsa, yo'l to'sgan bo'ladi. To'siq qo'yishga urinish natijasida to'qnashuv sodir bo'lgan boshqa hollarda, agar ikkala o'yinchi ham harakatda bo'lgan bo'lsa, unda to'siq qo'ymoqchi bo'lgan o'yinchi aybdor bo'lib hisoblanadi.

Agar o'yinchi to'pga nazar tashlamasdan raqibiga yuzi bilan qarab turgan bo'lsa va o'z joyini raqibining harakatiga qarab o'zgartirsa, bunday o'yinchi, agar boshqa shunga taalluqli omillar bo'lmasa, birinchi navbatda keyingi barcha to'qnashuv uchun javobgardir. Bu to'siq qo'yilayotgan o'yinchini ataylab itarib yuborish, ushlab qolish yoki u bilan to'qnashishni nazarda tutadi. Bu o'yinchi to'qnashuvdan qochish uchun oqilona harakatlarni qilishi lozim va uning to'qnashuvga olib kelgan har qanday harakatlari jazolanishi shart.

Raqiblarning to'p bilan harakat qilayotgan o'yinchiga yaqinlashishlariga aniq xalaqit berish maqsadida bitta yoki bir nechta o'yinchilarga o'z jamoasidagi to'pni egallab turgan o'yinchi bilan maydonda yonma-yon harakatlanishiga ruxsat etiladi. Biroq, agar ular yo'llarida to'g'ri joy egallagan raqib ustiga bostirib borsalar va to'qnashish yoki yo'l to'sish sodir bo'lsa, bunday o'yinchi vaziyatida to'qnashuv bo'lgan paytda hujum qilayotgan jamoaga javobgarlik yuklatiladi. O'yinchi maydonda joy egallayotib, qo'li yoki tirsagini kerib oldinga chiqarishi mumkin, ammo raqib shu o'yinchining yonidan o'tishga uringanida uning qo'li yoki tirsagi tushirilgan bo'lishi kerak, aks holda, odatda, bu o'yinchi yo'l to'sgan yoki o'yinchini ushlab qolgan bo'lib hisoblanadi.

**Vertikallik printsiipi:** Basketbol maydonida o'yinchilarning bevosita tepalaridagi bo'shliqqa haqqilari bor. Bunday vertikal printsiipi o'yinchi tepasidagi bo'shliqni himoyalaydi, biroq u o'zining tikka holatini yo'qotishi bilan

va tanalar bilan to'qnashuv sodir bo'lsa, u javobgar bo'lib hisoblanadi va unga fol belgilanishi mumkin.

Shunday qilib, himoyalananayotgan o'yinchi hujum qilayotgan o'yinchining tepasida qo'llarini tutib turishi, uning sakrashiga va savatga to'p tashlashiga, agarda buni qilayotib u to'p bilan yoki hujum qilayotgan o'yinchining to'pga tegib turgan qo'li (qo'llari) bilan to'qnashuv sodir qilmasa, xalaqit berishi mumkin. Agar tana bilan to'qnashuv sodir bo'lsa, himoya qilayotgan o'yinchi javobgardir.

Hujumdagi o'yinchi savat ortidagi yon chizig'iga bevosita yaqin kelib, to'pni olib yurishi va keyin savatga to'p tashlashga urinish maqsadida engashib sakrashi mumkin. Agar shuni bajarayotib, u raqib hali egallamagan joyga tushsa va tana bilan hech qanday to'qnashuv sodir bo'lmasa, bu to'g'ri o'yindir. Biroq, agar to'qnashuv sodir bo'lsa, to'pni olib yurgan o'yinchi javobgar hisoblanadi.

Hujum qilayotgan o'yinchi to'pni savatga tashlayotganida o'zining tikka holatini yo'qotib, orqasidan uni to'g'ri taoqib qilayotgan o'yinchiga suyanib, to'qnashuv sodir qilsa, bunday holda to'p tashlayotgan hujumdagi o'yinchi fol qilgan bo'ladi.

***To'pni nazorat qilmayotgan o'yinchini taoqib qilish:*** To'pni nazorat qilmayotgan o'yinchi maydon bo'ylab erkin harakat qilish va boshqa o'yinchi tomonidan hali egallanmagan xohlagan joyni egallashi mumkin. To'pni nazorat qilmayotgan o'yinchilar, ular xo' himoyalananayotgan, xo' hujum qilayotgan jamoalarga tegishli bo'lishlaridan qat'iy nazar, harakatlanmayotgan raqibiga juda yaqin joyni egallashlari mumkin emas, yoki harakat qilayotgan raqib yo'lida tez joy egallashga haqqilari yo'q, chunki bunda raqib uchun to'xtash yoki o'z harakati yo'nalishini o'zgartirishga yetarlicha vaqt yoki masofa qolmaydi. Agar o'yinchi maydonda o'z joyini egallayotib, to'qnashuv sodir bo'lsa, unda bu to'qnashuv uchun javobgar hisoblanadi va unga fol qayd qilinishi mumkin.

Himoyalananayotgan o'yinchi taoqib qilayotganida to'g'ri joyni egallashi bilanoq, u raqibining yo'lida qo'llari, sonlari yoki oyoqlarini oldinga qo'yib, unga o'zini chetlab o'tishga xalaqit berishi mumkin emas. himoyalananayotgan o'yinchi taoqib qilayotganda to'g'ri joyni egallashi bilanoq o'z raqibi yo'lida to'g'ri holatni saqlab qolish uchun joyini o'zgartirishi, yo bo'lmasa yonga yoki orqaga cheklanishi mumkin. U raqib tomon oldiga harakatlanishi mumkin emas: agar raqib gavadasi bilan to'qnashuv sodir bo'lsa, u buning uchun javobgardir. U bo'shliq omilini, ushbu holda o'z raqibi orasidagi masofani hisobga olishi lozim.

***To'pni nazorat qilayotgan o'yinchini taoqib qilish:*** To'pni nazorat qilayotgan o'yinchini taoqib qilayotganda vaqt va masofa omillari eotiborga olinmasligi ham mumkin. To'p bilan bo'lgan o'yinchi taoqib qilinishida raqib taoqib qilish uchun uning oldida to'g'ri joyni egallagan zahoti, u to'xtatishga yoki o'z harakat yo'nalishini tezda o'zgartirishga tayyor turishi shart. Albatta, taoqib qilayotgan o'yinchi buni o'z joyini egallashidan oldin hech qanday to'qnashuv sodir qilmasdan bajarishi lozim, aks holda unga fol belgilanishi mumkin. himoya qilayotgan o'yinchi taoqib qilishning to'g'ri holatini egallagan zahoti, u to'pni olib yurgan o'yinchining o'zini chetlab o'tishga xalaqit berish uchun qo'llari, yelkalari, sonlari yoki oyoqlarini ochishi mumkin.

***To'pga nisbatan o'yinchining holati:*** Ikkala jamoaning ikkita yoki undan ortiq o'yinchilari to'pni egallashga urinsalar va buning natijasida tanalar bilan to'qnashuv

sodir bo'lsa, hakam: o'yinchilarni fol qilayotib to'pga nisbatan holatlarini eotiborga olishi lozim. Agar o'yinchi raqibining yonida yoki orqasida bo'la turib, to'pni egallab olmoqchi bo'lsa, raqibi esa to'pni egallashga qulayroq holatda turgan bo'lsa va to'qnashuv sodir bo'lsa, bu o'yinchi javobgar hisoblanadi va unga fol belgilanishi mumkin.

To'p shitdan sapchigan vaziyatda hech bir o'yinchi to'pni nazorat qilmaydi, shuning uchun orqada turgan o'yinchi raqibi va o'zining orasida maolom masofa qoldirishi shart. Agar ikkala o'yinchi to'pni egallash uchun qulay holatda bir-birlariga yuzma-yuz turgan bo'lsalar va to'qnashuv sodir bo'lsa, bunga eotibor bermaslik mumkin, lekin agar o'yinchilardan biri raqibini joyidan itarib chiqarish maqsadida qo'llari, yelkalari, sonlari yoki oyoqlarini ishlatsa, bu vaziyatda u o'yinchiga fol belgilanishi mumkin. Ikkala o'yinchi aybi bilan, ayniqsa, noto'g'ri to'qnashuv sodir qilinsa, ikki tomonlama fol qayd qilinishi mumkin.

**Kim birinchi bo'lib otish huquqiga ega:** Agar to'pni maydonda olib yurgan o'yinchi raqib tomonidan yaqindan taoqib qilinsa va tana bilan to'qnashuv sodir qilmasdan raqibidan o'tsa hamda uning boshi va yelkasi raqibidan o'tganidan so'ng to'qnashuv sodir bo'lsa, shu to'qnashuv uchun asosan himoyalalanayotgan o'yinchi javobgardir va unga fol qayd qilinishi mumkin. Biroq, agar hujum qilayotgan taoqib qilayotgan raqibiga ko'kragi yoki yelkasi bilan tegib to'qnashuv sodir qilsa, bunda hujum qilayotgan o'yinchi to'qnashuv uchun javobgar bo'ladi va unga to'qnashish foli qayd qilinishi mumkin.

**Havodagi o'yinchi:** Maydonning bir nuqtasidan havoga sakragan o'yinchi raqib tomonidan hech qanday to'siqsiz (xalaqitsiz) yana xuddi o'sha nuqtaga yoki boshqa nuqtaga tushishga haqli, lekin shunday shart bilanki, uning oyoqlari yerdan uzilgan paytda qo'nish nuqtasi hamda, shuningdek, depsinish va qo'nish yo'li raqib tomonidan egallanmagan bo'lishi lozim.

O'yinchi raqibi havoga sakraganidan so'ng uning yo'liga turib olishi mumkin emas. havodagi o'yinchining tagiga o'tib olish har doim ataylab qilingan fol bo'lib hisoblanadi va maolom paytlarda esa o'yinda qatnashish huquqidan mahrum qiladigan fol bo'lishi mumkin. Agar o'yinchi sakrasa va maydonga tushsa, uning harakatsizligi taoqib qilayotgan vaqtda tushish nuqtasi yaqinida to'g'ri joyini egallagan raqib bilan to'qnashuv sodir bo'lishiga olib kelsa, sakrashni amalga oshirgan o'yinchi to'qnashuv uchun javobgar bo'ladi va unga fol belgilanishi mumkin.

**Raqibga qo'llar bilan tegish:** Raqibga o'zicha qo'l va qo'llar bilan tegish qoidasiga rioya qilmaslik bo'lib hisoblanmaydi. Biroq to'qnashuv raqibning erkin harakat qilishini xohlagan ravishda cheklaydigan bo'lsa, unda bunday to'qnashuv fol bo'lib hisoblanadi. To'pni maydonda olib yurgan o'yinchi raqibining to'p olishiga qarshilik ko'rsatish maqsadida qo'lini yoki kaftini oldinga qo'yish mumkin emas.

**Markaziy o'yinchining o'yini:** Markaziy o'yinchiga raqibini turgan joydan yelkalari yoki sonlari bilan itarib chiqarish, shuningdek tirsaklari yoki qo'llarini yozib, uni erkin harakat qilishini cheklashga ruxsat bermasligi kerak. O'z navbatida himoyalalanayotgan o'yinchiga ham qo'llari, tizzalari yoki gavdasining boshqa qismlarini noto'g'ri ishlatib, markaziy o'yinchining erkin harakat qilishini cheklashi mumkin emas.

**Shaxsiy to'qnashuv. To'qnashuv:** Basketbol nazariy jihatdan to'qnashuvsiz o'yin bo'lib hisoblansa ham, shu narsa ravshanki, chegaralangan joyda o'nta o'yinchi katta tezlikda harakat qilayotgan paytda shaxsiy to'qnashuvdan butunlay qutulish mumkin emas.

Agar shaxsiy to'qnashuv to'p bilan to'g'ri o'ynash natijasida sodir qilinsa, buning ustiga o'yinchilar to'qnashuvsiz to'pni egallab olishlari mumkin bo'lgan joylarda turgan bo'lsalar va agar ular haqiqatdan to'qnashuvdan qochishga harakat qilsalar, unda bunday to'qnashuv tasodifiy deb qaraladi va agar u to'qnashib ketilgan o'yinchini noqulay ahvolda qoldirmasa, jazo berilmaydi. Boshqa tomondan, agar bir o'yinchi to'pni deyarli tutib olsa, orqada turgan raqibi to'pni egallab olish uchun sakrasa va uning orqasi bilan to'qnashib ketsa, unda raqib, hatto to'pga o'ynagan bo'lsa ham, fol sodir qiladi. Bunday hollarda, odatda orqada turgan o'yinchi to'pga va o'zining raqibiga nisbatan noqulay joylashganligi sababli to'qnashuvga aybdor bo'ladi.

**Ikki tomonlama fol:** Ikki tomonlama fol - bu ikkita raqib o'yinchi bir vaqtning o'zida bir-biriga qarshi fol sodir qilgan vaziyat. Ikki tomonlama fol sodir bo'lgan holda jarima to'plari tashlanmaydi, ammo aybdor o'yinchilarning har biriga shaxsiy fol yozilgan bo'lishi shart. Agar bu vaqtda to'p maydondan savatga tushmagan bo'lsa, o'yin yaqindagi doirada bahsli to'pni otish bilan davom ettiriladi, lekin agar to'p savatga tushgan bo'lsa, u holda to'p yon chiziq tashqarisidan o'yinga kiritilishi lozim.

**Ataylab qilingan fol:** Ataylab qilingan fol - bu, hakamning fikricha, o'yinchi tomonidan to'p bilan yoki to'psiz harakatlanayotgan raqibga nisbatan qasddan qilingan shaxsiy fol hisoblanadi. Bu qilingan xatti-harakatning jiddiyliги bilan belgilanmaydi; balki oldindan o'ylangan yoki mo'ljallangandek ko'rinadigan to'qnashuv bo'lib hisoblanadi. Ataylab qilinadigan follarni takrorlagan o'yinchi o'yinda qatnashish huquqidan mahrum qilinishi mumkin.

**To'p tashlash jarayonidagi o'yinchiga qilingan fol:** O'yinchi to'p otish harakatini boshlaganidan so'ng unga qarshi fol qilingan paytda, agar to'p savatga tushsa, bunday to'p, hatto u hakam hushtak chalganidan so'ng o'yinchining qo'lidan chiqqan bo'lsa ham har doim hisoblanadi. Agar o'yinchi hakam hushtagidan so'ng aniq yangi harakat qilsa, savatga tushgan to'p hisoblanmaydi.

**Bir va bir qoidasi:** O'yin yarmida jamoa o'yinchilarining qilgan follari 4 ta bo'lganidan so'ng o'yinchi navbatdagi shaxsiy yoki texnik folni qilsa, bir va bir qoidasi kuchga kiradi va shunga muvofiq qaysi o'yinchiga nisbatan fol qilingan bo'lsa, o'sha o'yinchiga bitta jarima to'pini tashlash imkoniyati beriladi. Agar bu jarima to'pi muvaffaqiyatli tashlansa, shu o'yinchining o'zi yana bitta jarima to'pini tashlaydi. Ammo, agar birinchi jarima to'pi savatga tushmagan bo'lsa, o'yin davom ettirilishi lozim. **hujumdagi jamoaning foli:** Jamoasi to'pni nazorat qilayotganida o'yinchi tomonidan sodir qilingan fol har doim aybdorga fol yozilishi va maydonning yon chizig'i tashqarisidan to'pni o'yinga kiritish uchun raqibga to'p berilishi bilan jazolanishi kerak.

**Ayrim vaziyatlardagi follar:** Follar taxminan bir vaqtda yoki ikki tomonlama fol ketidan keladigan jonsiz to'p davr ichida sodir qilingan paytda, qoidalarda ko'zda tutilgandan farqli vaziyatlar kelib chiqishi mumkin. Bunday vaziyatlarda quyidagi printsiplar qo'llanishi lozim:

1. Fol har bir ayb uchun yozib qo'yilishi shart.

2. har ikkala jamoa bir xil jazolanadigan fol olganida jarima to'plarini tashlash yoki to'pni yon chiziq tashqarisidan o'yinga kiritish bilan jazolanishi kerak emas. SHu maqsadda "bir va bir" va ikkita jarima to'pini tashlash bir xil jazo sifatida baholanishi kerak.

Agar to'p maydondan savatga tushmagan bo'lsa, o'yin galma-gal to'pni egallash qoidasi bilan davom ettirilishi lozim, lekin, agar to'p maydondan savatga tushgan bo'lsa, bu holda o'yin to'pni maydon yon chizig'ining tashqarisidan yoki uning orqasidan o'yinga kiritish bilan davom ettiriladi. 3. har ikkala jamoa bir xil jazoga loyiq bo'lmagan fol olganida, follar shu folning sodir bo'lish tartibiga muvofiq berilishi va bajarilishi lozim. Agar follar ikkala jamoaga bir vaqtning o'zida qayd qilingan bo'lsa, hakamlar ularning qanday tartibda sodir bo'lganligini aniqlashlari zarur.

4. To'pni oldingi fol uchun jazo tariqasida maydonga kiritish belgilansa va to'pni o'yinga kiritilmasidan oldin boshqa fol sodir bo'lsa, bu holda to'pni o'yinga kiritish huquqi o'z kuchini yo'qotadi.

**Janjal:** Agar o'rindiqlarda o'tirgan har qanday shaxs mushtlashish paytida yoki mushtlashishga olib kelishi mumkin bo'lgan turli vaziyatda shartli jamoa o'rindig'i zonasi chegarasidan chiqsa, bunday shaxs o'yinda qatnashish huquqidan mahrum qilinishi va maydon joylashgan yerdan, ya'ni jamoa o'rindig'i va o'yin maydoni zonalaridan chiqarib yuborilishi lozim hamda u o'z jamoasi bilan boshqa hech qanday aloqa qilishi mumkin emas.

**Jamoaning texnik foli:** Trenerlar, trener yordamchilari, zaxiradagi o'yinchilar va jamoa hamro'lari jamoa o'rindig'i zonasi atrofida turishlari lozim. Istisno:

a) trener, trener yordamchisi yoki jamoa hamro'i jaro'atlangan o'yinchiga yordam berishi, hakamdan buning uchun ruxsat olinganidan so'ng o'yin maydoniga tushishi;

b) almashilayotgan o'yinchi kotib stoli oldiga kelib, almashish haqida so'rashi;

v) trener yoki trener yordamchisi talab qilib olinadigan tanaffusni so'rab olishlari;

g) o'yin soati to'xtatilgan paytda, trener vazminlik va o'yinning bir meoyorda kechishiga xalaqit bermasdan kotib stolidan hisobga, vaqtga, talabga yoki follarning soniga taalluqli bo'lgan ma'lumotlarni olishi mumkin.

Trener, trener yordamchisi, zaxiradagi o'yinchi yoki jamoa hamro'i hakamlarga, texnik komissarga (agar u bor bo'lsa), kotibga, soniya hisoblovchiga, 24 soniya operatoriga yoki raqiblarga hurmatsizlik bilan munosabatda bo'lishlari mumkin emas.

Trener yoki trener yordamchisi o'yin paytida yoki talab qilib olinadigan tanaffuslar vaqtida o'z o'yinchilariga murojaat qilishi mumkin. Lekin bunda u jamoa o'rindig'i zonasi atrofida turadi. Avval beshta fol olgan o'yinchi fol qilsa, bu fol trenerga yoziladi va shunga mos ravishda jazolanadi.

**O'yinchining beshta foli:** Beshta, yoki shaxsiy texnik fol sodir qilgan to'g'ridan-to'g'ri o'yindan chiqib ketishi shart.

**Jamoaning to'rtta foli:** O'yin yarmida jamoa o'yinchilari to'rtta, shaxsiy va texnik follarni qilganlaridan so'ng, o'yinchilarning keyingi hamma follari, faqat agar jiddiyroq jazo o'rnida bo'lmasa, bir va bir qoidasiga ko'ra jazolanadi.

**Jarima to'plarini tashlash:** Jarima to'pini tashlash - bu hech qanday qarshiliksiz, bevosita jarima to'pini tashlash chizig'i oldidan savatga to'p otib, o'yinchiga bir ochko olish imkoniyatining berilishidir. To'p tashlash 5 soniya ichida bajarilishi kerak.

**Maydonda o'zini tutish qoidalari, o'zaro munosabatlar:** O'yinning to'g'ri borishi hakamlar va ularning yordamchilari bilan trenerlar va zaxiradagi o'yinchilarni qo'shib, ikkala jamoa aozolarining to'la va betaraf hamkorligini talab etadi. Ikkala jamoa g'alabaga erishish uchun butun kuch va g'ayratlarini ishlatishga haqlidirlar, ammo bu sportchi raqobat va adolatli o'yin ruhida amalga oshirilishi kerak. Bunday hamkorlik printsiplariga yoki uning ruhiga ataylab amal qilmaslik va ularni takrorlash texnik fol sifatida qaralishi va ushbu qoidalarda ko'rsatilganidek jazolanishi lozim.

**O'yin yakunini yasash:** O'yinning birinchi yarmi oxirida kotib qaydnomaning pastki qismidagi tegishli joyga ikki jamoa tomonidan o'rnatilgan hisobni qo'yadi, xuddi shu tarzda u o'yinning ikkinchi yarmi va mumkin bo'lgan qo'shimcha davrlar hisobini yozib qo'yadi. O'yin oxirida u g'olib chiqqan jamoaning nomini yozib, eng so'nggi hisobni belgilab qo'yadi. Keyin kotib qaydnomaga imzo chekadi va uni soniya hisoblovchi, 24 soniya operatori va katta hakam imzolari bilan tasdiqlatib qo'yadi. Katta hakam eng oxirgi bo'lib qaydnomaga qo'l qo'yadi va shu bilan o'yin tugaydi.

**Hakamlar va ularning yordamchilari:** hakamlar deyilganda katta hakam va hakam tushuniladi. Ularga soniya hisoblovchi, kotib va 24 soniya operatori yordam beradilar. SHuningdek, texnik komissar ham qatnashishi mumkin. hakamlar va ularning yordamchilari o'yinni qoidalarga va bu qoidalarni FIBAning rasmiy talqiniga muvofiq o'tkazishlari kerak.

Aniq bir o'yinning katta hakami va yordamchi hakamlari yetarli darajada chuqur bilimli hamda odil bo'lishlari, maydonda qatnashayotgan jamoaga qarashli biron-bir tashkilot bilan sira ham bog'liq bo'lmasliklari zarur. hakamlar, ularning yordamchilari yoki texnik komissar o'yin qoidalarini o'zgartirishga rozilik berishga haqqilari yo'q. hakamlar qora basketbol poyafzali, uzun kulrang shim va kulrang ko'ylakdan iborat sport kiyimini kiyishlari shart.

**Katta hakamning vazifalari va huquqlari:** Katta hakam barcha jihoz va asboblarni tekshirish hamda tasdiqlashi kerak. SHu bilan birga u stol atrofida o'tiradigan hakamlar va ularning yordamchilari tomonidan foydalaniladigan barcha signallarni tekshiradi va tasdiqlaydi. U o'yinning rasmiy soatini tanlaydi va shu soat operatori, shuningdek, kotib va 24 soniya operatori bilan tanishadi.

Katta hakam maydon markazidagi doirada to'pni yuqoriga otib, o'yinni boshlab beradi. Agar to'p savatga tushgan yoki tushmaganligi borasida hakamlarning fikrlari qarama-qarshi bo'lsa, bunday hollarda katta hakamning o'zi masalani qat'iy hal qiladi. U zarur bo'lgan sharoitda o'yinni to'xtatib qo'yishga haqli, shuningdek, agar jamoa katta hakamning ko'rsatmasidan keyin ham o'yinda qatnashishdan bosh tortsa yoki jamoa o'z xatti-harakatlari bilan o'yinni davom ettirilishiga qarshilik ko'rsatayotgan bo'lsa, bunda hakam, jamoa o'yinni davom ettirilishiga qarshilik ko'rsatayotgan bo'lsa, bunda hakam, jamoa o'yinni davom ettirish huquqidan mahrum etilganligi sababli mag'lubiyatga uchradi, deb belgilashi mumkin.



**Maydondagi hakamlar vazifalari:** hakamlar hushtak chalishga va bir vaqtning o'zida ishora (5 raqami yoki 19 raqami) yordamida soat to'xtatilishini ko'rsatishga majburlar. SHundan so'ng, ular o'zlarining qarorlarini tushuntirish maqsadida barcha ishoralarni namoyish qiladilar. To'p o'yin jarayonida maydondan yoki jarima to'pi tashlangandan so'ng savatga tushsa, hakamlar hushtak chalmasliklari kerak, ammo to'p tushganligini ishora (1 raqami yoki 3 raqami) yordamida aniq ko'rsatishlari shart.

Agar qabul qilingan qarorni tushuntirish maqsadida og'zaki muloqot zarur bo'lsa, unda barcha xalqaro musobaqalarda bunday tushuntirishlar ingliz tilida olib borilishi lozim. har bir foldan yoki bahsli to'p otishga qaror qilgandan so'ng hakamlar maydonda o'z joylarini almashtiradilar. O'yin davomida texnik komissarning vazifasi birinchi navbatda, stol atrofida o'tirgan hakamlarning ishlarini kuzatishdan hamda katta hakam va hakamga o'yinni xotirjamlik bilan o'tkazishlariga yordam berishdan iborat.

**Kotibning vazifalari:** Kotib to'planayotgan ochkolar yig'indisini ketma-ket tartibda qo'shib borishi shart. U maydondan va jarima to'plari tashlanganda savatga tushgan yoki tushmagan to'plarni qayd qilib borishi kerak. Kotib har bir o'yinchiga belgilangan shaxsiy yoki texnik follarni ro'yxatga oladi va o'yinchilarning birortasiga beshinchi fol belgilangan vaqtda, zudlik bilan katta hakamga bu haqida xabar qiladi. U har bir jamoa iltimosi bilan olingan bir daqiqali tanaffuslarni qayd qilib boradi, trener o'yinning har bir yarmida ikkinchi tanaffus olganida, uni hakam orqali bu haqda ogoh qiladi. Raqamlar yozilgan ko'rsatkichlardan foydalanib, har bir o'yinchi tomonidan sodir qilingan follarning sonini ko'rsatib boradi.

Kotib o'yinni boshlab beradigan o'yinchilarning va o'yinga tushadigan barcha zahiradagi o'yinchilarning familiyalari va raqamlarini ro'yxatga oladi. Jamoa tarkibi, o'yinchilarning raqamlari va zahiradagi o'yinchilar haqidagi ro'yxatni topshirishga taalluqli qoidalar buzilgan vaqtda, kotib tezda yaqin turgan hakamga bu haqda xabar qiladi. Kotib signalining tovushi o'yin soatini yoki o'yinni to'xtatmaydi, to'pni jonsiz holatga o'tishga majbur qilmaydi. Kotib signal berishda juda hushyor bo'lishi kerak. Signal faqat to'p jonsiz deb hisoblangan hamda o'yin soati to'xtatilgan vaqtda va to'p o'yinga qayta kiritilishidan oldin berilishi kerak.

**Soniya hisoblovchining vazifalari:** Soniya hisoblovchi o'yinning har bir yarmini boshlanish vaqtini kuzatadi va o'yin boshlanishidan kamida uch daqiqa oldin katta hakamni bu haqda ogohlantiradi. Katta hakam o'z navbatida o'yinga tayyorlanayotgan jamoalarga o'yin yarmi boshlanishiga 3 daqiqa vaqt qolganligi haqida xabar beradi. Soniya hisoblovchi, ushbu qoidalarda ko'zda tutilganidek, o'yin vaqtini va o'yinda bo'lgan to'xtalishlar vaqtini hisobga olib boradi. Soniya hisoblovchining signali to'pni jonsiz holatga o'tishga majbur qiladi, o'yin soati esa to'xtatiladi. Talab qilib olingan tanaffusda soniya hisoblovchi soniya hisoblagichni yurg'izib qo'yadi va kotibga tanaffus boshlanganidan 50 soniya o'tganidan so'ng signal berishni tavsiya qiladi.

**24 soniya operatorining vazifalari:** 24 soniya operatori shu 24 soniya moslamasini yoki soatni boshqarib turadi. 24 soniya operatorining signali to'pni jonsiz holatga o'tishga majbur qiladi va o'yin soati to'xtatiladi. O'yinchi maydonda jonli to'p ustidan nazorat qilayotgan daqiqadan boshlab, 24 soniyali moslama

operator tomonidan iloji boricha tezroq ishga solinishi kerak. Jamoa to'p ustidan nazorat qilishni yo'qotishi bilan, yaoni:

a) to'pni savatga tashlashga urinish bo'lganda va keyin to'p tashlagan o'yinchining qo'lga qaytib tegmagan paytda yoki;

b) to'p ustidan nazoratni raqib jamoasining o'yinchisi to'xtatib qo'ygan paytda yoki;

v) to'p jonsiz holatga o'tgan paytda moslama tezda to'xtatilishi shart.

Moslama 24 soniyaga qaytarib qo'yilishi va keyingi safar maydondagi o'yinchining to'p ustidan nazorati tiklanishi bilanoq, yangi 24 soniyali vaqt boshlangan paytda yana yoqilishi kerak.

Biroq:

a) to'p maydon tashqarisiga chiqib ketganda va to'pni o'yinga kiritish bundan oldin to'pni nazorat qilib turgan jamoa o'yinchisi tomonidan amalga oshirilganda yoki;

b) hakamlar jaro'atlangan o'yinchini himoya qilish uchun o'yinni to'xtatganlarida va to'pni o'yinga kiritish jabrlangan o'yinchi qatnashayotgan jamoaning boshqa o'yinchisi tomonidan amalga oshirilganda, yangi 24 soniyali vaqt to'pni maydonning yon chiziqlari tashqarisidan o'yinga kiritish bilan boshlanmaydi.

Bunday hollarda to'p o'yinga kiritilganidan so'ng shu jamoaning o'yinchisi to'p ustidan nazorat qila boshlagan paytda, 24 soniya operatori, moslama qachon to'xtatilgan bo'lsa, shu vaqtdan boshlab uni ishga soladi. Agar to'pni nazorat qilib turgan jamoa o'yinchilari 24 soniya davomida to'pni savatga tashlamasalar, unda 24 soniya signali chalinadi.

***O'yinchilar va hakamlar jaro'at olgan holda:*** hakamlar o'yinchilar jaro'at olgan hollarida yoki boshqa turli sabablarga ko'ra o'yinni to'xtatishlari mumkin. Agar o'yinchi jaro'atlangan paytda to'p jonli bo'lsa, yaoni to'pni egallab turgan jamoa uni savatga tashlamaguncha, to'pni yo'qotilmaguncha, to'pni o'yindan chiqarib yubormaguncha yoki to'p jonsiz holatga o'tmagunicha hushtak chalishga sabr qilishlari lozim.

Agar jaro'atlangan o'yinchini himoya qilish zarur bo'lsa, hakamlar o'yinni darhol to'xtatishlari mumkin. Agar jaro'atlangan o'yinchi o'yinni o'sha zahoti davom ettira olmasa va tibbiy yordam olayotgan bo'lsa, u holda avval almashish bo'lmagan bo'lsa, u bir daqiqada yoki imkoni boricha tez almashishi kerak. Agar jaro'atlangan o'yinchi jarima to'plarini otishi lozim bo'lsa, ular almashtirilgan o'yinchi tomonidan bajariladi; agar oxirgi jarima to'pi savatga aniq tushsa, jaro'atlangan o'yinchini almashtirgan o'yinchi o'z jamoasida almashish uchun keyingi fursat tug'ilgunga qadar almashtirilmaydi.

***O'yinni davom ettirish:*** Turli sabablarga ko'ra to'p jonsiz holatga o'tganidan so'ng o'yin quyidagicha davom ettiriladi: agar jamoa to'p ustidan nazorat qilayotgan bo'lsa, shu jamoaning xohlagan o'yinchisi to'p jonsiz holatga o'tgan joyga yaqin bo'lgan maydonning yon chizig'i tashqarisidan to'pni o'yinga kiritadi; agar hech qaysi bir jamoa to'p ustidan nazorat qilmayotgan bo'lsa, to'p jonsiz holatga o'tgan joyga yaqin bo'lgan doira ichida bahsli to'p otilishi bilan o'yin davom ettiriladi; foldan so'ng; bahsli to'pdan so'ng; o'yinning yarmi yoki qo'shimcha davr tugaganidan so'ng; maydondan savatga to'p tashlanganidan so'ng; jarima to'pi

tashlanganidan so'ng; to'p maydon tashqarisiga chiqib ketganidan so'ng; o'yin qoidasi buzilganidan so'ng.

**Savatlar va jamoa o'rindiqlarini tanlash:** Mehmonlar jamoasining qarori yoki katta hakam va har bir jamoaning sardori yoki treneri ishtirokida savatlarni tanlash uchun quroa tashlash o'yin boshlanishiga kamida yigirma daqiqa qolganida aniq bo'lishi kerak. Mehmonlar jamoasi yoki betaraf maydonda quroani topgan jamoa savatni va jamoa o'rindig'ini tanlash huquqiga ega bo'lishi kerak.

**Jamoa o'rindig'i:** O'yin paytida jamoa o'rindig'ida o'tirishga berilgan shaxslar bo'lib trener, trener yordamchisi, zaxiradagi o'yinchilar va ko'pi bilan jamoaning beshta mutaxassis-hamro'lari, yaoni rahbar, vrach, uqalovchi, statistikachi, tarjimon hisoblanadilar. Jamoa hamro'i bo'lish imtiyoz hisoblanadi va javobgarlikni yuklaydi. SHuning uchun jamoa hamro'ining xulqi hakamlarning huquqiy doirasiga kiradi. Boshqa hech bir shaxs jamoa o'rindig'idan kamida ikki metr atrofida o'tirishi mumkin emas.

**Almashtiriluvchi o'yinchilar:** Trener almashtiruvchi o'yinchini – u o'ynashga tayyor bo'lishi lozim – ko'zda tutilgan kursidan joy egallashga yuborishi kerak. Almashtiriluvchi o'yinchi kotib o'z signalini bergunga qadar shu joyda o'tirib turishi lozim. Signal berilganidan so'ng u o'rnidan turishi va yaqindagi hakamga o'yinga tushishga tayyor ekanligini ko'rsatishi kerak. U hakam tomonidan maydonga taklif qilinmagunicha, maydonga tushmasligi lozim. Talab qilib olingan tanaffus vaqtida o'yinchini almashtirishga ehtiyoj bo'lsa, almashtiriluvchi maydonga tushishdan oldin kotibga yoki yaqindagi hakamga murojaat qilishi shart.

**Norozilik bildirish holati:** Agar jamoa hakamning qarori yoki o'yin davomida sodir bo'lgan biron bir voqea tufayli uning huquqlari kamsitilgan deb hisoblasa, u quyidagicha harakat qilishi lozim:

a) hodisa ro'y bergan paytda to'p jonsiz holatga o'tib, soat to'xtatilgan zahoti yoki uning ketidan kelgan birinchi tanaffusda jamoa sardori vazminlik bilan katta hakamga o'z arzini aytishi kerak. Katta hakam o'z qarorini tushuntirib berishi mumkin, yoki agar zarur bo'lsa, qarorni tekshirishi va hisob hamda o'yin vaqtini nazorat qilib chiqishi mumkin. Agar o'yinning bunday to'xtatilishi 24 soniyadan oshsa, agar katta hakam boshqacha qaror chiqarmasa, shu masalani qo'ygan jamoaga tanaffus sifatida belgilab qo'yilishi shart;

b) agar o'yin oxirida arz qilgan jamoa o'yinda yuz bergan voqea tufayli o'zini noqulay sharoitga tushib qolgan deb hisoblasa, uning sardori zudlik bilan kotib stoliga murojaat qilishi va kotibga (u orqali hakamga) uning jamoasi o'yin natijasiga qarshi norozilik bildirayotganligi haqida xabar qilishi lozim. Arizaning kuchga ega bo'lishi uchun jamoaning maydondagi rasmiy vakili (yoki uning treneri, yoki milliy federatsiya vakili) bu norozilikni tasdiqlovchi xatni o'yin tugagandan keyingi 20 daqiqa ichida yozma ravishda berishi zarur.

v) arz qilgan jamoaning tashkiloti o'yindan keyingi bir soat ichida o'z norozilik matnini komissiyaga ko'rib chiqish uchun topshirishi kerak.

g) arz qilgan jamoaning yoki raqib jamoasining texnik komissiyasi chiqargan qarordan norozi bo'lsa, u bundan keyin shikoyat arizasini Apellyatsiya hayoatiga yuborishi mumkin.

**hakamlarning imo-ishoralari:** SHu qoidalarning oxirida keltirilgan, qo'llar yordamida bajariladigan imo-ishoralar har bir hakam tomonidan diqqat bilan

